



PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA NAZORATSIZLIK VA HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISH BORASIDAGI FAOLIYATI.

Hayitov Ahliddin Akmal o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotgan 3-
o'quv kursi 319-guruh kursanti

G'aniyev Farrux Taxirjanovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati kafedrasida katta o'qituvchisi Toshkent,
100197, O'zbekiston, e-mail: fargan77@bk.ru

orcid.org/0009-0005-2423-050X

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14609488>

ARTICLE INFO

Received: 2nd January 2025

Accepted: 4th January 2025

Published: 7th January 2025

KEYWORDS

*Voyaga yetmagan, huquqbuzar,
huquqbuzarlik, uyushgan guruh, notinch
oila, nazoratsizlik, qarovsiz bola.*

ABSTRACT

*Voyaga yetmaganlar o'rtasida
nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning
profilaktikasi to'g'risidagi qonun hujjatlari,
huquqbuzarliklarning profilaktikasi
faoliyatining tushunchasi, asosiy xususiyatlari,
mazkur faoliyatni tartibga soluvchi normativ-
huquqiy hujjatlar va ularni qo'llash amaliyoti
tahlil qilinib, faoliyatni takomillashtirishga doir
taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan*

O'tgan qisqa davr ichida mamlakatimiz sud-huquq tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, uning natijasida ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimi izchil isloh etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 10 apreldagi 5005-conli farmoni, «Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish to'g'risida» 2017 yil 18 apreldagi PQ-2896-sonli qarorida huquqbuzarliklar profilaktikasini barvaqt ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish, ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari hamda huquqni muhofaza qilish organlari va jamoatchilik organlari bilan hamkorlikni samarali tashkil etish kabi qator vazifalari belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi Qonuni voyaga etmaganlarning huquqbuzarliklarini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini oldini olish, shuningdek ushbu sohadagi tushunchalar berib o'tilgan. Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, hozirgi paytda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar va huquqbuzarliklarning oldini olish dolzarb muammolardan biridir. Chunki kelgusi ishlarning davomchilari aynan o'sib kelayotgan yosh avloddir, ular davlatning kelajagini hamda ertangi kuni va taqdirin belgilaydi. Voyaga yetmaganlar va yoshlar tomonidan sodir etilayotgan, sodir etilish mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni oldini olish bugungi mamlakatimiz tarqqiyoti hamda tinchligi-osoishtaligi uchun qanchalar dolzarb muammo ekanligini va uni amalga oshirish qanchalik zarur va shart bo'layotganligini bugungi kunning statistikasi va tahlillarida ham ko'rishimiz mumkin.

Malumki, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tizimiga quyidagilar kiradi:

- voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar;
- ichki ishlar organlari;
- ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari;
- vasiylik va homiylik organlari;
- sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari;
- mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari

Yuqorida ko'rsatilgan organlar hamda muassasalar voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etadi. Ushbu muassaslardan biri Ichki ishlar organlari voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasini o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi. Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi maxsus bo'linmalari voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'linmalaridan hamda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy huquqiy yordam ko'rsatish markazlaridan iboratdir. Ichki ishlar organlarining boshqa bo'linmalari voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasida o'z vakolatlari doirasida ishtirok etadi hamda zarur yordam ko'rsatadi.

Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar tahlillaridan kelib chiqib, ular orasida «O'quvchi», «Davomat», «O'smir», «G'amxo'rlik» kabi huquqbuzarliklarning maxsus profilaktik tadbirlari idoraviy normativ hujjatlar asosida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan, shuningdek nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlar bilan O'zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining «Yakka tartibdagi profilaktika ishini tashkil etish» bobi talablari asosida yakka tartibda profilaktika ishi tashkil etiladi. Ushbu holatda yakka tartibda profilaktika ishi olib borilayotgan shaxslarga nisbatan ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq profilaktika ishi yuritiladi. Majburiy ta'limdan bosh tortgan voyaga yetmaganlar aniqlanib, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalari orqali o'qishga qaytarish choralari ko'riladi. Voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, terrorizm, diniy ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan tizimli profilaktik chora-tadbirlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarining voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida huquqbuzarliklar profilaktikasi yo'nalishidagi faoliyati bosh boshqarmaning "Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish" bo'limi tomonidan uslubiy ta'minlanadi. Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi ishlarining ahvoli bo'yicha oliy va o'rta-maxsus ta'lim, Xalq ta'limi vazirliklari, va boshqa manfaatdor idoralar bilan o'zaro hamkorlik va axborot almashinuvi ta'minlanadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari:

- yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;
- yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir faoliyatda ishtirok etadi;
- yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi;

-yosh fuqarolarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko'radi; yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev Miromonovichning tashabbuslari bilan isloxotlarning dastlabki yillarida mamlaktimizda voyaga yetmaganlarning va yoshlarning, hamda uyushmagan yoshlarning bo'sh vaqtlarni mazmunli o'tkazish va ularning ongini qamrab olgan turli xil aksariyat salbiy vayronkor g'oyalar hurujidan tozalash maqsadida respublikamizning xar bir viloyatlarida kitobxonlikni keng targ'ib kilish va ommalashtirish bu orqali yoshlarimizni va voyaga yetmaganlarni kitobni sevishtga xamda ona vatanga muhabbat va ajdodlarimiz tarixini mukammal o'rganish shu asnoda jamiyatda voyaga yetmaganlar va yoshlar tomonidan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish kabi vazifalarni xal etish muhim dasturilamal bo'lib xizmat kiladi desak xech yanglishmagan bo'lamiz.

Jumladan:

-Birinci tashabbus - yoshlarni musika, rassomlik, teatr va sanatning boshka turiga qiziqishini oshirish, o'z kobiliyatlarini namoyon qilishga ko'maklashish. Madaniyat va sanat mussaslarida badiiy xavaskorlik jamoalari, yoshlar klublari faoliyatini yo'lga ko'yish. Qolversa, yoshlarning qiziqisharidan kelib chikib 1.5 mingta to'garak, musika va sanat maktablarida yangi sinflarni tashkil etish kabilarini o'z ichiga oladi.

-Ikkinchi tashabbus - yoshlarni jismoniy chiniktrish va sport bilan shug'ullanishlari uchun zarur sharoitlar yaratish. 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarning kamida 30 foizni sportga jalb etish. Sport muassaslaridan foydalanish qamrovini oshirish, olis kishloklarda yengil konstruksiyalari sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar qurish.

-Uchinchi tashabbus - axoli va yoshlarining kompyuter texnologiyalari xamda internetdan foydalanish kunikmalarini oshirish. Raqamli texnologiyalar o'quv markazi va ularning xududiy filiallarini, xar bir umumtalim maktabida kompyuter texnologiyalari bo'yicha to'garaklar tashkil etish. Yoshlarga kompyuter dasturlash asoslari, robotexnika, axborot texnologiyalari va elektron tijorat soxasida innovatsion tadbirkorlik asoslarini o'rgatish.

-To'rtinchi tashabbus - yoshlar manaviyatini yuksaltirish va ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish. Qoraqalpog'iston Respublikasi va xar bir viloyatga 1 million nusxadan kam bo'lmagan miqdorda badiiy, marifiy va ommabop kitoblar yetkazib berish. Mahalla idoralari, maktablar, xarbiy qismlar va boshqa tashkilotlarda kutubxonlar tashkil etish.

-Beshinchi tashabbus- bu xotin-qizlarni ish bilan taminlash uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish. Bo'sh turgan binolarda tikuv-tirikotaj korxolarini tashkil etish, yengil konstruksiyalardan kichik sexlar qurish. Kasb-xunar kollejarida tikuv-tirikotaj ixtisosligi bo'yicha o'quv kurslarin tashkil etish, xotin-kizlarni kasbga tayyorlash kabi tashabbuslardan iborat.

Ushbu tashabbuslar kelajakda yoshlarni har tomanlama mukammal va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda asosiy yo'nalish bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., «O'zbekiston», 2016. – 56 b
2. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.– T.,«O'zbekiston», 2017.–48 b.
3. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi – inson mafaatlarini ta'minlashning muhim omilidir. – Xalq so'zi. – T., 2017. 8 yanv
4. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qattiq tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak / SH.M.Mirziyoev; – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017.

5. Mirziyoev SH.M. Inson manfaatlarini ta'minlash uchun avvalo uning huquq va erkinliklari, osuda va farovon hayoti himoya qilinmog'i kerak Halq so'zi. – T., 2017. 10 fev.
6. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017.
7. Mirziyoev SH.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. – 2017. – 23 dek.
8. Mirziyoev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganing 26 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi // Xalq so'zi. 2018. 13 yanv.
9. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Rasmiy nashr. – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2022.
10. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy Javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi. Rasmiy nashr. – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2022.
11. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi 2010 yil 29 sentyabr qonun // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2010. – № 39. – 341-m.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillash-tirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida (O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y., 3-son, 23-modda) <https://www.lex.uz/uz/>.
13. G'aniev F. T. Turkiya respublikasi: tabiyati, madaniyati va an'analari // Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 101-116.
14. G'aniev F. T. O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy preventiv mexanizmi // Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 84-90.
15. Ganiyev F., Ganiyeva G. O'g'irlik haqida tushuncha, o'g'irlikning psixologik genezisi va mehanizmlari // Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 43-47.
16. Ganiyev F., O'zoqboyev S. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyat ishlarini yuritish // Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 12 Part 2. – С. 131-134.
17. Ганиев Ф. Ўғирлик жиноятларининг профилактикаси тушунчаси ва турларига оид айрим мулоҳазалар // Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 37-42.
18. Ганиев Ф. Т. Ўғрилик жиноятининг жиноят-ҳуқуқий жиҳатлари ва олдини олишга доир фикр-мулоҳазалар // Results of National Scientific Research International Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 301-313.
19. Ганиев Ф. Профилактика инспекторлари томонидан ўғриликларнинг олдини олиш фаолиятини ташкил этиш йўналишлари // Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 159-162.
20. Ганиев Ф. "Обод ва хавфсиз маҳалла" тамойилига асосланган тизимни жорий этишда фуқоролар йиғинларини фаолиятини тизимли йўлга қўйиш // Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 96-98.
21. Ганиев Ф. Ахборот хавфсизлиги ҳамда муҳофазаси таъминланганига қарамасдан содир этиладиган жиноятлар // Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 129-138.
22. Taxirjanovich G. F., Qizi M. F. M. Ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarning o'ziga xosligi // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 8-10.
23. Ganiyev F., O'zoqboyev S. Voyaga etmaganlar жиноятчилигига қарши курашиш ва олдини олиш-давр талаби // Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 12 Part 2. – С. 125-130.

24. Ganiyev F., Ganiyeva G. O'g'irlik jinoyati tushunchasi va profilaktikasi //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 173-177.
25. G'aniyev F. Prevention of offenses related to religious extremism //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 125-128.
26. G'Aniyev, F. "Diniy eksterimizm bilan bog'liq bo'lgan qonunbuzarliklarning proflaktikasi." *Science and innovation* 1.C7 (2022): 125-128.
27. G'aniev F.T. O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy preventiv mexanizmi //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 84-90.
28. Нарзиев Ш. З. и др. Кибер-жиноятчилик ва унга қарши курашиш //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2024. – Т. 44. – №. 2. – С. 9-13.
29. Нарзиев Ш. З. Профилактика инспекторларининг илгари судланган шахслар билан ҳуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикаси чора-тадбирларини амалга ошириш фаолияти ҳақида айрим масалалар //zamonaviy fan, ta'lim va ishlab chiqarish muammolarining innovatsion yechimlari. – 2022. – С. 159-162.
30. Нарзиев Ш., Абдумаликов Р. Профилактика инспекторларининг ҳуқуқбузарликлардан жабрланган шахслар билан ишлаш фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 63-70.
31. Нарзиев Ш., Омонов Н. Ички ишлар органлари таянч пунктлари негизда ҳамкорликни ҳуқуқий таъминлашни ташкил этиш //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 184-188.
32. Нарзиев Ш., Қодирова И. Баркамол, жисмоний ва руҳий соғлом шахсни тарбиялашда ихтисослаштирилган ўқув-тарбия муассасаларининг ўрни //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 20. – С. 152-155.
33. Нарзиев Ш., Зокиров Н. Профилактика инспекторининг жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлаш бўйича фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида айрим мулоҳазалар //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 20. – С. 156-164.
34. Qushboqov S. X., Usipbekov N. J. Yurtimizda mahkumlarni ozodlikka tayyorlashda amalga oshirilgan islohotlar va ulardan kutilayotgan natijalar //Models and methods in modern science. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 179-182.
35. Qushboqov, S., & Tilabov, S. (2023). Kiber jinoyatlardan saqlanishda umumiy profilaktikani o'rni. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(18), 67-69.
36. Қушбоқов, Ш. (2023). Юртимизда тадбиркорликни жазони ижро этиш тизимидаги истиқболи. *Models and methods in modern science*, 2(5), 114-117.
37. Охунов, З., & Қушбоқов Ш, Т. Т. С. Э. (2022). Ҳуқуқбузарликларни олдини олишга оид айрим мулоҳазалар. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(11), 34-39.
38. Qushboqov S., Isroilov D. Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida adliya organlari bilan hamkorligining tashkiliy asoslari //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 9. – С. 16-24.
39. Qushboqov S., Isroilov D. Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida adliya organlari bilan hamkorligi tushunchasi //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 23. – С. 96-103.
40. Qodirjonovich J. Z., O'G'Li Q. S. X. Bir guruh shaxslar tomonidan axborot texnologiyalardan foydalanib sodir etilgan firibgarlik va o'g'irlik jinoyatlarining sodir etish usullari va ularni tergov qilishga oid ayrim mulohazalar //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 5. – С. 137-144.
41. Киличев Х.М. Вояга етмаган болаларнинг исмга бўлган ҳуқуқларини ҳимоя қилиш масалалари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. Maxsus son. – С. 63-67.

42. Маматович Қ.Х. Фуқаролар йиғинлари уни қайта ташкил этишга оид мулоҳазалар //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С. 764-769.
43. Миршарапов А.Г. Мини-футбол как вид спорта и средства физического воспитания //Conferencea. – 2024. – С. 18-21.
44. Миршарапов А.Г. Jismoniy tayyorgarlik mashg 'ulotlarida chigalyozdi mashqlarining zarurati //Conferencea. – 2024. – С. 159-162.
45. Chorshanbiev B. B. Қуролликучлар қўшинларида сув таъминотининг аҳамияти //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 11. – С. 163-167.
46. Ахмедова С.Т., Охунов З.М. Особенности применения административных взысканий за управление автотранспортом в состоянии опьянения //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2024. – Т. 2. – №. Special Issue 6. – С. 48-54.

